ADABIYOT DARSLARINI TASHKIL ETISHDA O‘QUVCHILARNING MATN TAHLILI KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

Jabborova Gulchehra Abdumo‘min qizi, Guliston davlat pedagogika instituti, o‘zbek tili va tillarni o‘qitish kafedrasi o‘qituvchisi
e-mail: jabborovagulchehra9696@gmail.com
Mamatova Hilola Mihiddinovna, Guliston davlat pedagogika instituti xorijiy tillar kafedrasi dotsenti
e-mail: hilol-777@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada adabiyot darslari o‘quvchilarning matnni chuqur anglash, ularning estetik va axloqiy qarashlarini rivojlantirish, kuzatish, adabiy jarayonlarni tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirish metodlari ko‘rsatib berilgan. Matn tahlili adabiyot darslarining mazmuni bo‘lib, u orqali o‘quvchilar matn mazmuni, uslubi, janri va muhimi, muallifning fikrini qanday shakllantirishni o‘rganadi.
Kalit so‘zlar: tahlil, rivojlantirish, kuzatish, adabiy jarayon.

РАЗВИТИЕ НАВЫКОВ АНАЛИЗА ТЕКСТА У СТУДЕНТОВ ПРИ ОРГАНИЗАЦИИ УРОКОВ ЛИТЕРАТУРЫ

Аннотация. В данной статье показаны методы формирования умений учащихся литературных классов глубоко понимать текст, развивать свои эстетические и нравственные взгляды, наблюдать и анализировать литературные процессы. Текстуальный анализ – содержание занятий по литературе, посредством которого учащиеся узнают о содержании, стиле, жанре текста и, что немаловажно, о способах формулирования авторского мнения.
Ключевые слова: анализ, разработка, наблюдение, литературный процесс.

Annotation. This article presents methods for literature lessons to help students develop a deep understanding of the text, develop their aesthetic and moral views, and develop skills in observing and analyzing literary processes. Text analysis is the content of literature lessons, through which students learn the content, style, genre, and most importantly, how to formulate the author's opinion.
Keywords: analysis, development, observation, literary process.

Kirish. Adabiyot darslari o‘quvchilarga matnlarni chuqur anglash, ularga estetik va axloqiy qarashlarni shakllantirish, adabiy jarayonlarni tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Matn tahlili – adabiyot darsining asosiy tarkibiy qismi bo‘lib, u orqali o‘quvchilar matn mazmuni, uslubi, janri, tasviriy vositalari va muhimi, muallifning

fikrini qanday shakllantirishni o‘rganadilar. Tahlil jarayoni to‘g‘ri tashkil etilganda, o‘quvchilarning matnga bo‘lgan qiziqishlari ortadi va adabiyotga nisbatan yanada chuqurroq e’tibor qaratadilar.

1. Matnni tanlash va darsning mavzusini aniqlash. Darsning boshlanishida, avvalo, o‘qituvchi matnni tanlashda adabiy asarlarning mazmuni, janri, uslubi va o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga oladi. O‘quvchilarning matnni yaxshi tushunishlari, ular uchun qiziqarli va mos bo‘lishi muhimdir. O‘qituvchi o‘quvchilarga matnning umumiy mazmuni, muallifi va asar haqidagi qisqacha ma’lumotlarni berishi kerak. Bu bosqichda o‘quvchilarni matnga tayyorlash va ularga qiziqish uyg‘otish uchun savollar berish, asar haqida taxminlar qilish foydali bo‘ladi.

Adabiyotlar va metodologiya. 7-sinf Adabiyot darsligining boshlanish qismida mashhur ingliz yozuvchisi Hemingueyning “Badiiy asarning yozilgan qismidan yozilmagani muhimroq”, – degan iqtibosi keltirilib o‘tilgan. Darslik mualliflari ushbu iqtibos asosida Shodiqul Hamroning “Hovlidagi daraxt” hikoyasini namuna sifatida tahlil etishgan. Mualliflar shunday yozadi: “Badiiy matnning muhim xususiyati – uning qator tagma’nolarga egaligi. Muallif odatda eng muhim g‘oyalari, ahamiyatga molik fikrlarini ochiq-oydin aytmaydi. Biz asarning “yozilgan” qismi – asar matni, undagi obrazlar tasviri, voqealar bayoni, muallif qo‘llagan badiiy tasvir vositalarini tahlil qilish orqali uning “yozilmagan” qismlarini kashf qilishni, undan xulosalar chiqarishni o‘rganamiz” [1].

Darslikda Shodiqul Hamroning “Hovlidagi daraxt” hikoyasi tahlili ko‘rsatib berilgan. Unda hikoya tahlilini boshlashdan oldin sarlavha mazmunini tushunib olish ta’kidlanadi: Asar sarlavhasiga e’tibor bering. Sizningcha, asar nima uchun “Hovlidagi daraxt” deb nomlangan? Unda nima haqida hikoya qilinadi deb o‘ylaysiz?”

Shundan so‘ng darslik mualliflari tomonidan asar sarlavhasining mazmuni savolga javob tarzida ochib beriladi: Bu savolga javob topish uchun, avvalo, “hovli” va “daraxt” so‘zlariga e’tibor beramiz. Odatda hovli biz tug‘ilib o‘sgan joy, kichik vatan sifatida tasavvur uyg‘otadi. Daraxt esa uzoq umr ko‘radi, tabiatning barcha injiqliklariga qaramay, qaytadan kurtak ochib meva beradi. Daraxtning shu xususiyatlaridan kelib chiqib, mualliflar ko‘p holatlarda undan badiiy adabiyotda sabr-matonat, oila boshlig‘i, millat, jamiyatga oid g‘oyalar tasvirida foydalanadilar, ldizini ota-onaga, yashnab turgan yaproqlarini farzandlarga o‘xshatadilar. Demak, badiiy asarda obraz sifatida ishlatilgan obyektning matndagi vazifasini tushunish uchun uning o‘ziga xos xususiyatlariga ham e’tibor berishimiz lozim”.

2. Matnni o‘qish va tushunish. O‘qituvchi matnni birinchi marta o‘qish jarayonida o‘quvchilarni asar mazmuni bilan tanishtiradi. Matnni bir marta o‘qib chiqishdan so‘ng, o‘quvchilarga undagi asosiy fikrlar va voqealar ketma-ketligini tushunishlari uchun savollar beriladi. Bu savollar asar qahramonlarining xatti-harakatlarini, muallifning fikrini, asosiy g‘oyalarni aniqlashga yordam beradi.

Taniqli olim Q. Yo‘ldoshev badiiy asar tahlili haqida qiyidagilarni yozadi: “Badiy adabiyot faqat hayotiy savollarga javob beradigan, o‘quvchilarni yashashga o‘rgatadigan amaliy vosita sifatida tushunish va izohlash noto‘g‘ri, va hatto zararlidir” [2].

Matn tahlilida tushunish va anglash muhim o‘rin tutadi. Darslik mualliflari “Hovlidagi darxt” hikoyasi tahlili borasida quyidagilarni tushuntiradi: “Odatda

asardagi voqealar ma’lum bir ziddiyatlar asosida rivojlanadi. Bu parchada Muhojir va ota o‘rtasidagi ziddiyat ularning daraxtga bo‘lgan turli xil munosabatini, bu munosabat orqali esa muallifning badiiy-g‘oyaviy maqsadini oydinlashtirishga xizmat qilmoqda. Ota uchun daraxt qadrli, ajdodlaridan qolgan yodgorlik. Bu yodgorlikni keyingi avlodlarga beshikast yetkazish vazifasi uning zimmasiga yuklangan. Muhojir uchun esa bunday qadriyatlarning ahamiyati yo‘q. U shunchaki “havasga” daraxt o‘stirish uchun unga tig‘ urmoqchi. Shuning uchun ham ota “xushlamay”, “jahl bilan” gapirmoqda. Muhojir esa “bilag‘onlik bilan” gapiradi, ko‘zlarini “ayyorona” qisadi. Bu so‘zlar bizga bolaning Muhojirga munosabatini ham tushunishga yordam beradi”.

3. Matnning strukturaviy tahlili. Matnni tahlil qilishda uning tarkibiy qismlarini (bosh, o‘rta va yakun) ajratish va har bir qismni alohida tahlil qilish muhimdir. Har bir bo‘limning o‘ziga xos funksiyasi va mazmuni mavjud. Masalan, boshlanishda voqea joylashuvi, qahramonlar va ulardagi ichki konfliktlar haqida gap borishi mumkin. Asar rivojlanishi davomida voqea davom etadi, shuningdek, qahramonlarning qarashlari va xatti-harakatlaridagi o‘zgarishlar ko‘rsatiladi. Yaxshi yozilgan yakun esa o‘quvchiga asosiy g‘oya yoki muallifning ta’sirini qoldirishi kerak.

“Hovlidagi darxt” hikoyasi tahlilida asar qahramonining “Otam daraxtga nisbatan qat'iy va adolatli qarashga ega. U daraxtni himoya qilishni muhim deb biladi va uning zararlanishi yoki buzilishi og‘ir gunoh deb hisoblaydi. Bu obraz orqali otaning tabiatga, hayotga, va odob-axloqqa bo‘lgan qat’iyatli va an’anaviy yondashuvini ko‘rishimiz mumkin.

Muhojirning kimligi noaniq bo‘lishi, uning qishloqqa chetdan kelganligi, o‘ziga xos tarzda kiyinishini (soyabonli kepka) ta’kidlanishi uning o‘ziga xos va alohida inson ekanligini bildiradi. Uning nomi, ya’ni “Muhojir”, boshqa qishloq ahlidan ajralib turishini anglatadi. Muhojirning “yurtini bilmaslik” va “o‘zi ham gapirmasligi” uning o‘tmishini yashirishga intilishini ko‘rsatadi. Bu, ehtimol, uning o‘tmishda biror sababsiz yoki xohlagan holda qishloqqa kelganligini va qishloqdagilar bilan hamisha aloqa qilishdan ehtiyot bo‘lishini anglatadi.

4. Asar janrini tahlil qilish. Adabiyot asarlarini janriga qarab tahlil qilish o‘quvchilarga ularning shakli va uslubi haqida aniq tasavvur hosil qilish imkonini beradi. Masalan, epik asar (hikoya, roman) va lirik asar (she’r, doston) o‘rtasidagi farqlarni aniqlash, muallifning til va uslubini tushunishga yordam beradi. Roman yoki hikoya janrida yozilgan matnda voqealar, xotiralar, va xarakterlar tahlil qilinadi, she’rda esa uslubiy vositalar, tasvirlar va qat’iy ma’nolar o‘rganiladi.

5. Matndagi tasviriy vositalar va stilistik elementlar. Adabiy tahlilning muhim qismi – matndagi stilistik vositalarni aniqlashdir. Metafora, ta’rif, takrorlash, solishtirish, kamsitish kabi adabiy vositalar muallifning matndagi g‘oyasini qanday ifodalashini tushunishga yordam beradi. Matndagi har bir element (so‘z, ibora, jumla tuzilishi) muallifning fikrini qanday ravshan va ta’sirli tarzda ifodalashini ochib beradi.

Masalan, «Yurakda ko‘tarilgan bir ko‘p boshi bor», - degan misolda adabiy obrazni va uning ma’nolarini aniqlash o‘quvchiga matnning chuqur qatlamlarini anglash imkonini beradi. O‘qituvchi bunday tasviriy vositalar qanday his-tuyg‘ularni yaratishi va o‘quvchiga qanday ta’sir ko‘rsatishi haqida izoh beradi.

6. Matndagi qahramonlar va ularning tahlili. Qahramonlarning xulq-atvori, fikrlari va xatti-harakatlari matn tahlilining asosiy qismidir. Qahramonlarning ichki

dunyosi, ularning orzu va maqsadlari, o‘zgarishlari va shaxsiy inqirozlari tahlil qilinadi. O‘quvchilarni qahramonlarning xatti-harakatlarini o‘rganishga undash, ularni shaxs sifatida tushunishga yordam beradi.

O‘qituvchi, masalan, «Qahramonning qanday ichki kurashlari mavjud?» yoki «Nega bu qahramon shunday qaror qabul qildi?» kabi savollar bilan o‘quvchilarni muhokama qilishga chaqirishi mumkin. Bu, o‘z navbatida, o‘quvchilarning tahlil qobiliyatini oshiradi va matnga nisbatan chuqur fikrlashni rag‘batlantiradi.

7. Asarning g‘oyaviy va axloqiy mazmuni. Matnni tahlil qilishda g‘oya va muallifning axloqiy xabari haqida ham gapirish zarur. Adabiyot asarlari ko‘pincha muayyan ijtimoiy yoki axloqiy masalalarni yoritadi. Muallifning dunyoqarashi va axloqiy tamoyillari matndagi har bir qahramonning qarorlari, harakatlari va natijalari orqali ochiladi.

“Hovlidagi daraxt” hikoyasi tahlilida Muhojir va ota o‘rtasidagi nifoqning sababi daraxtga bog‘lanadi. Bu daraxt otaning hayotidagi muhim unsurni ifodalash bilan birga, shuningdek, ikki kishining turli dunyoqarashlari va qadriyatlarini aks ettiradi. Ota daraxtni himoya qilishni zarur deb biladi, Muhojir esa o‘zgacha ehtiyoj va qarash bilan, payvand qilishni so‘raydi. Bu ikki qarash orasidagi tafovut – bir tomondan, an’anaviy, qat’iy va himoyaga asoslangan yondashuv (ota), boshqa tomondan, yangilikka va o‘zgarishga intilish (Muhojir) o‘rtasidagi qarama-qarshilikni ko‘rsatadi.

Muhojirning daraxtdan payvandlik so‘rashi o‘ziga xos bir harakatdir. Bu orqali u daraxtni yanada ko‘paytirishni, uni kengaytirishni istaydi. Payvandlik – bu o‘sishni, rivojlanishni, o‘zgartirishni anglatadi. Muhojirning bu istagi otamning tabiatga va an’anaviy qadriyatlarga bo‘lgan muhabbatiga zid keladi. Bu o‘zaro tafovut ikki shaxs o‘rtasida hissiy va qarashlar jihatidan alohida masala yaratadi.

8. Matnning estetik ta’siri. Matnning estetik qiymatini tahlil qilish, uning go‘zalligi va san’atsal jihatlarini anglash muhimdir. Adabiyot o‘quvchilarga nafaqat bilim, balki estetik zavq ham berishi kerak. O‘quvchilarni asarni o‘qib, unga bo‘lgan hissiy munosabatlarini ifodalashga chaqirish, ularni adabiy asarlarni noan’anaviy va chuqurroq tarzda qabul qilishga o‘rgatadi.

O‘quvchilarga muallifning fikrini tushunish va ularning o‘z hayotida qanday qo‘llanilishi mumkinligini anglashda yordam berish kerak. Masalan, «Asarda qahramonning axloqiy qiyofasi qanday ifodalangan?» yoki «Muallif tomonidan ilgari surilgan g‘oya hayotda qanday namoyon bo‘ladi?» kabi savollar orqali o‘quvchilarni chuqurroq fikrlashga undash mumkin.

9. O‘quvchilarni matn bilan ishlashga yo‘naltirish. Matn tahlilini yakunlashda o‘quvchilarga shaxsiy fikr bildirish imkoniyatini berish juda muhim. Ular o‘z nuqtai nazarlarini asoslab, matn haqidagi o‘z izlanishlarini bildiradilar. O‘qituvchi, shuningdek, tahlil qilingan matn bilan bog‘liq savollarni, diskussiyalarni yoki kichik ijodiy vazifalarni berishi mumkin. Bu o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi [3]

Tahlil va natijalar. Matn orqali ikki inson o‘rtasidagi qarama-qarshi dunyoqarashlar, o‘zini ifodalash va qadriyatlar tafovuti taqdim etilgan. Daraxt, bu matnda nafaqat tabiat obyekti, balki odamlar o‘rtasidagi munosabatlarning ramziga aylangan. Otaning daraxtni himoya qilishga bo‘lgan qat’iy yondashuvi va Muhojirning yangi imkoniyatlarga intilishdagi talabidan kelib chiqib, matn insonlar o‘rtasidagi

ideologik va madaniy farqlarni ko‘rsatib beradi.

7-sinf o‘quvchilari uchun “Adabiyot” darsligining 31-sahifasida Ernest Seton-Tomsonning “Lobo” hikoyasi berilgan. Ushbu hikoya boshlanmasdan oldin “Bolalar enseklopediyasi” dan olingan bo‘rilar haqida ma’lumot beruvchi matn o‘qish uchun tavsiya qilingan. O‘quuvchilar bu matnni o‘qib tushunishlari uchun o‘ziga xos tahlil qila olishlari ham zarur bo‘ladi.

“Bo‘ri zararlimi yoki foydalimi? Aslida bunday savol berish noto‘g‘ri, chunki ko‘pgina hayvonlar bir vaqtning o‘zida ham foydali, ham zararli bo‘lishi mumkin. Uy hayvonlariga hujum qiladigan bo‘ri odamlarga ziyon yetkazadi. Xuddi mana shu bo‘ri o‘rmonda yoki tundrada ko‘pincha nimjon, kasalmand hayvonlarga hujum qiladi, chunki bunday hayvonlarni tutib olish oson-da. Kasal hayvonlarni qirishi natijasida bo‘ri o‘rmon va unda yashaydigan jonivorlarga foyda keltiradi. Uni mana shu xizmatlari uchun “o‘rmon sanitari” deb atashadi. Bo‘rilar o‘rmonda hayvonlarning haddan ziyod ko‘payib ketishiga yo‘l qo‘ymaydi.

Bo‘ri nihoyatda ayyor va aqlli hayvon. U o‘zi ta’qib qilinayotganini darhol sezib, xatarli joyni uzoq vaqtga tark etadi. Shuning uchun ba’zida bo‘rini yaxshilab qo‘rqitib qo‘yishning o‘zi yetarli bo‘ladi.

Bo‘ri yashirinishga usta, juda ehtiyotkor hayvon. Ba’zan hatto eng tajribali ovchilar ham bolalarini katta qilayotgan urg‘ochi bo‘ri uyasini topa olmaydilar. Xavf-xatarni sezgan bo‘ri o‘z bolalarini boshqa joyga ko‘chirib, yaxshilab yashirib qo‘yadi. Kuzga borib, bo‘ri bolalari voyaga yetadi va ota-onasi bilan birgalikda qishki safarga otlanadi. Ovchilar qordagi izlardan bo‘ri to‘dasi bu yerdan qachon o‘tganini darrov aniqlashadi, lekin tezkor va ehtiyotkor to‘dani qidirib topish oson bo‘lmaydi. Qishda bo‘rilar odamlardan chetroqda yuradi, qopqon qo‘yilgan va xatarli joylardan aylanib o‘tadi. Ko‘pincha ular to‘satdan paydo bo‘lib, odamlarni esankiratib qo‘yadi va qo‘tondagi qo‘yni olib qochadi”.

Ushbu matn bo‘rilar haqida batafsil va qiziqarli ma’lumotlarni beradi. O‘qituvchi matn tahliliga kirishish uchun o‘quvchilarga savollar berishi muhim:

1. Nega bo‘rilarni “o‘rmon sanitari” deb atashadi?
2. Matn muallifi bo‘rining foydali va zararli tomonlarini qanday ta’riflagan? Bu tomonlar o‘rtasida qanday bog‘liqlik bor?
3. Bo‘rilar nimjon va kasal hayvonlarga hujum qilishining sabablarini tushuntirib bering.
4. Sizningcha, bo‘rilar o‘rmon muhitida bo‘lmasa, bu ekotizimga qanday ta’sir ko‘rsatishi mumkin?
5. Matnda bo‘rilarni ta’qib qilishga bo‘lgan insoniy yondashuv haqida nima deyilgan? Siz bu yondashuv bilan rozimisiz yoki yo‘qmi? Nega?
6. Bo‘rining ehtiyotkor va yashirinishga mohir xatti-harakatlarini qanday baholaysiz? Bu ularning omon qolishi uchun qanchalik muhim?
7. Matnda aytilishicha, bo‘rilar odamlarning chorvasiga hujum qiladi. Bunday holatlar kamroq bo‘lishi uchun qanday chora-tadbirlar ko‘rish mumkin?
8. Agar sizning hududingizda bo‘rilar soni ortib ketgan bo‘lsa, ularga qanday munosabatda bo‘lgan bo‘lardingiz?
9. Bo‘rilarni qish paytida ta’qib qilish o‘rniga, ularni tabiatga foydali hayvon sifatida himoya qilish mumkinmi? Agar mumkin bo‘lsa, qanday yo‘llar bilan?

10. Tasavvur qiling, bo‘rilar o‘z muhitidan butunlay yo‘qolib ketdi. Sizningcha, bu o‘rmon ekotizimiga qanday o‘zgarishlar olib keladi? Hikoya shaklida yozib bering.

11. Agar siz “o‘rmon sanitari” bo‘lgan bo‘rilar haqida hujjatli film ishlash imkoniyatiga ega bo‘lsangiz, qaysi jihatlarni ko‘rsatishni tanlardingiz?

12. Bo‘rining ehtiyotkorlik va yashirinuvchanlik qobiliyatlari haqida ertak yoki qissa yozib ko‘ring.

13. Bo‘rilarni inson va tabiat uchun zararsiz qilish uchun qanday texnologiyalar yoki yondashuvlar ishlab chiqilishi mumkin?

14. O‘rmon va tundra hayvonlarining sonini muvozanatda saqlash uchun bo‘rilardan tashqari boshqa qanday hayvonlar muhim rol o‘ynashi mumkin?

Savollar qanchalik hayotiy, o‘quvchilarni fikrlashga yo‘naltirilgan bo‘lsa, tahlil shunchalik mukammal bo‘ladi. O‘quvchilarning asar haqida fikrlashi tinglangach o‘qituvchining ham fikrlarni umumlashtiruvchi xulosaviy munosabati ifodalanishi muhim hisoblanadi.

Matnda bo‘rining ikki tomonlama tabiati haqida gapirilgan. U bir tomondan, uy hayvonlariga hujum qilishi sababli odamlarga zarar yetkazadi. Bu, ayniqsa, chorvachilik bilan shug‘ullanuvchi odamlarga iqtisodiy zararni anglatadi. Ammo boshqa tomondan, bo‘rilar o‘z tabiiy muhitida juda muhim ekologik vazifani bajaradi. Bo‘rilar “o‘rmon sanitari” vazifasini bajaradi, hayvonlar sonini nazorat qilish, ta’qibni sezish qobiliyati mavjud bo‘ladi. Bo‘rilarda qo‘rqitish ta’siri kuchli bo‘ladi, ovchilarga qarshi ehtiyotkorlik tajribasi mavjud bo‘ladi.

Matnda bo‘rining qishda qanday yashash tarzi haqida qiziqarli ma’lumotlar keltirilgan: qishki safar, qopqonlardan qochish, o‘g‘irlik. Kuzga borib, bo‘ri bolalari voyaga yetgach, ular ota-onalari bilan birgalikda qishki safarga chiqadi. Bu to‘dalarning ijtimoiy tuzilishini ko‘rsatadi. Bo‘rilar xavfni sezib, qopqon va xavfli joylardan aylanib o‘tadi. Ularning ehtiyotkorligi va moslashuvchanligi tabiatda omon qolishlariga yordam beradi. Qishki sharoitda bo‘rilar odamlar bilan to‘qnash keladi. Ular chorvalarga hujum qilib, bir qarashda yovvoyi va o‘tkir taktikalardan foydalanadi.

Xulosa. Matn bo‘rilarni nafaqat xavfli yirtqich, balki ekologik tizimning muhim qismi sifatida tasvirlaydi. Ularning zararli va foydali xususiyatlari bir-birini to‘ldiradi va bu hayvonlarni yanada qiziqarli qiladi. Bo‘rilar o‘z aqlliligi, moslashuvchanligi va o‘rmondagi muhim vazifalari bilan ajralib turadi. Shuning uchun ularga nisbatan faqatgina zararli yoki foydali degan bir tomonlama yondashuv o‘rniga, ularning tabiatdagi o‘rnini tushunish muhimdir.

Dars so‘ngida ma’lum bo‘ladiki, “bo‘rilar zararlimi yoki foydalimi” degan savolni bir tomonlama ko‘rib chiqish noto‘g‘ri. Ularning yovvoyi tabiatda tutgan o‘rni va inson bilan aloqasi o‘zaro bog‘liq. Tabiatning bu ajoyib vakillariga to‘g‘ri yondashuv bilan, ulardan nafaqat insoniyat, balki butun ekotizim foyda ko‘rishi mumkin. Shu sabab, bo‘rilarga nafaqat yirtqich, balki tabiatning ajralmas qismi sifatida qarashimiz lozim.

Adabiyot darslarida matnni tahlil qilish o‘quvchilarni faqatgina asarni tushunishga o‘rgatmaydi, balki ular dunyoqarashini kengaytiradi, estetik va axloqiy qiymatlarni oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirzayeva Z., Jalilov K. Adabiyot; 7-sinf uchun darslik. – Toshkent. Respublika ta’lim markazi, 2022. – B. 3.

2.Yo‘ldoshev Q. Badiiy asar tahlili. – Toshkent: Kamalak nashriyoti 2016. – B. 18.

3. Rajapova K. O‘quvchilarni matn ustida ishlash va gap tuzishga o‘rgatish. QQDU: “O‘zbek filologiyasi”. 2004.

4. Ziyodova T. U. “Matn yaratish texnologiyasi”. – Toshkent: “Fan nashriyoti”. 2007.